

IQLIMNI GLOBAL O'ZGARISHI SHAROITIDA SOYA O'SIMLIGINI BUXORO VILOYATIDA EKISH VA PARVARISHLASH

Jumayev Farhod Hojiqurbanovich – biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Buxoro davlat universiteti. f.x.jumayev@buxdu.uz

Annotatsiya. Quyidagi maqolada qishloq va xalq xo'jaligi uchun muhim va katta ahamiyatga ega bo'lgan soya o'simligini, noqulay iqlim va har xil darajada sho'rlangan Buxoro viloyati tuproq sharoitida ekish, parvarishlash, morfobiologik belgilarini fazalar kesimida namoyon bo'lishi va hosilini yig'ishtirib olish texnologiyasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Soya, iqlim, sharoit, sho'rlanish, tuproq, hosil, faza, texnologiya, morfobiologiya, belgi, avlod, tur.

PLANTING AND GROWING OF SOYA IN THE CONDITIONS OF GLOBAL CLIMATE CHANGE IN THE BUKHARA REGION

Jumayev Farhod Hojiqurbanovich – Candidate of Biological Sciences,
Associate Professor.

Bukhara State University. f.x.jumayev@buxdu.uz

Annotation. In this article, the soybean plant, which is important and of great importance for agriculture and national economy, is studied in the soil conditions of Bukhara region with varying degrees of salinity, its maintenance, morpho-biological characteristics and the technology of harvesting.

Keywords: Shade, climate, conditions, salinity, soil, yield, phase, technology, morphobiology, character, generation, species.

Qishloq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan soya o'simligi – Labguldoshlar oilasi, Glycine L. avlodi, G.hispida Max. turiga mansub bo'lib, ussuriya, xitoy, koreya va xind kenja turlari madaniylashtirilgan. Soyaning vatani janubiy-sharqiy Osiyo ya'ni Rossiyaning sharqiy-janubiy (Vladivostok) o'lkasi, Yaponiya, Xitoy, Indoneziya, Koreya, Xindiston xisoblanadi. Shuning uchun sovuqqa chidamli yovvoyi turalri Rossiyada uchraydi. Indoneziya va Xindistonda issiqsevar turlari ko'p uchraydi. Soya qadimiy birinchilardan madaniylashtirilgan usimlik bo'lib, Xitoyda 5 ming yil ilgari xam ekilgan.[1].

Soya o'simligi donidan xalq xo'jaligining barcha sohalarida foydalaniladi. Undan 400ga yaqin turli xil oziq-ovqat mahsulotlari, texnika xom ashyosi va hayvonlar, ipak qurti hamda hayvonlar va qushlar uchun ozuqalar tayyorlanadi. Doni tarkibida oqsil miqdori 40-50%; moy 23-25%, bor. Yer sharida ishlab chiqariladigan o'simlik

moyining 35 foizdan ko‘prog‘i soya o‘simligi donidan olinadi. Soyaning donidan olingan moyda inson organizmi uchun zararli moddalar mutlaqo uchramaydi. [2]

O‘simliklar orasida birgina soya oqsili tarkibida faqat hayvon oqsilida bo‘ladigan, almashlab bo‘lmaydigan 9 xil aminokislota mavjud. Donidan sut, qatiq, pishloq, un, go‘sht o‘rnini bosuvchi yoki go‘sht ta‘mini beruvchi ma’sulotlar tayyorlanadi.[3]

Yer shari dehqonchiligida soya eng ko‘p ekiladigan mintaqa AQSh hisoblanadi. Bu turdagi ekin maydonlari AQShda 35,6 mln., Xitoyda 11 mln, Yaponiyada 3 mln, Braziliyada 33,3 mln. gektarni tashkil qiladi, u shuningdek, Hindiston, Koreya, Vetnam, Indoneziya, Yevropa davlatlarida, Shimoliy Afrika, Avstraliya kabi ko‘plab mamlakatlarda ekiladi.[4]

2016 yil dunyo soyachiligida Braziliya birinchi marta AQShni quvib o‘tmoqda, 2017 yil bu davlat 106 mln. tona soya yetishtiradi, keyingi o‘ttiz yilda soyachilikni rivojlantirdi va 33,3 mln. gektarga soya ekilmoqda. hosildorlik 31, 4 sentner. Dunyoda soya ishlab chiqarishda 320,5 mln.t. AQSh hozirgi kunda 106,140 mln.t, Braziliya 106,600 mln. t., Argentina 58,500 mln.tonna ishlab chiqaradi, Soya doni va shrotini sotish bo‘yicha Braziliya lider mamlakat hisoblanadi yoki 57,6 mln t so doni va shrotini 15,6 mln t, AQSh ikkinchi o‘rinda(45,9 mln t i 10,1 mln t). Argentina dunyoga 11,9 mln t soya doni va 32,8 mln t shrotini sotadi. Asosiy sotib oluvchi davlat Xitoy xisoblanadi. O‘zining milliarddan ziyod aholisining oqsilga bo‘lgan ehtiyojini soya oqsili evaziga qondiradi.[4]

Soya donidan linoliumlar, pishiq va chidamli plastmassalar, sovun xom ashyosi, bo‘yoq, alif, lak va yelim (kley) hamda sun‘iy jun gazlamalari olinadi. Olingan bo‘yoqlardan mashinalar va texnik asboblarni bo‘yog‘i uchun foydalaniladi.

Soya doni va poyasida dukkaklilar oilasiga mansub o‘simlik bo‘lgani uchun oqsil moddasi juda ko‘p, 100 kg. soya donida 138, 100 kg. quruq pichanida 52, ko‘k poyasida 22, silosida 20 kg. ozuqa birligi bor. Donida hazm bo‘ladigan protein miqdori boshqa donli va dukkakli ekinlar donidagiga qaraganda yuqori. 1 kg. soya donida 278 g. hazm bo‘ladigan protein mavjud. Bir ozuqa birligida 100 gramm protein so‘raladi.

Ekishning qulay muddatlarini belgilab, tuproqda issiqlik, namlik, havo rejimlari qulay bo‘lishini ta‘minlash lozim. Tajribalarda tasdiqlanishicha, soyani ekish uchun tuproq harorati 14-16 daraja bo‘lishi eng qulay muddat. Lekin bu tadbirni amalga oshirishga tuproq harorati 10-12⁰S bo‘lganida kirishish lozim. Soyaning ekish me‘yori nav xususiyatiga va foydalanish maqsadiga bog‘liq. Kechpishar navlarning oziqlanish maydoni katta bo‘lgani uchun ekish me‘yori kamroq – gektariga 350-370 ming dona ertapishar navlar uchun esa – 450-470 ming dona urug‘ tashlanadi. [5]

Ekish chuqurligi 4-5 sm.dan oshmasligi kerak. Urug‘lar juda chuqurga tashlansa, urug‘palla barglarni ko‘tarib chiqishi qiyinlashadi. Ekish asosan, “SPCh-6” rusumli rumin “SON-2,8” rusumli sabzavot seyalkalari bilan bajariladi xamda Keys-1200 ekishgichi bilan ekiladi. Maysalar hosil bo‘lguncha yerni qatqaloq bossa, darhol

borona qilinadi. Boronalash ikki marta o'tkazilishi kerak.

Soyaning "Orzu", "Genetik-1", nomli ertapishar, "Do'stlik", "To'maris", "Oyjamol", "Uzbekskaya-2", "Parvoz" nomli o'rtapishar va "Baraka", "Uzbekskaya-6" kech pishar navlari yaratilgan. Ertapishar navlari 75-90 kunda, o'rtapishar navlari 100-120 kunda va kechpishar navlari 135-140 kunda pishib yetiladi. Soya turli tuproqlarda o'sa oladi. Ammo, mexanik tarkibi yengil, unumdor, g'ovak, chirindilarga boy tuproqqa ekilsa, hosildorligi albatta, yuqori bo'ladi.

Bir sentner soya doni olish uchun 4-5 kg. azot, 2,3-2,5 kg. fosfor va 3,5-3,7 kg. kaliy sarflanadi. Soya O'zbekistondagi sho'ri yuviladigan hamma tuproqlarda yaxshi o'sib, hosil beradi. Soya turli tuproqlarda o'sa oladi. Ammo, mexanik tarkibi yengil, unumdor, g'ovak, chirindilarga boy tuproqqa ekilsa, hosildorligi albatta, yuqori bo'ladi. Soya maysalari unib chiqqandan to gullaguncha yerdan oziq moddalarini kam o'zlashtiradi. Gullash davridan boshlab ozuqa elementlariga talabchan bo'ladi. Soya maydonlariga urug'lar nitraginlar bilan ekilgan bo'lsa, gektariga sof holda 60-90 kg. (fiz/xolda 160-200kg) fosforli, 90-100 kg. (fiz/xolda 140-180kg) kaliyli o'g'itlar solish lozim, o'rta hisobda 15-20 t. organik o'g'it beriladi. Urug'lar nitraginsiz ekilsa, ekish bilan birga sof 40-50 kg. (fiz/xolda 110-180kg) miqdorda azot.

O'simliklar ikkinchi yoki uchinchi chinbarg hosil qilganda, birinchi kultivatsiya o'tkaziladi. Keyinchalik, bu ish 2 yoki 3 marta takrorlanadi. Tuproq-iqlim sharoiti va nav xususiyatlariga qarab 3-5 marta sug'oriladi. Sug'orish me'yori gektariga 800-900 m³ bo'ladi, yomg'ir latib ham sug'orish mumkin. Bunda sug'orish me'yori 500-700 m³ni tashkil etadi. Grunt suvlari 120-140 sm. bo'lgan maydonlar soya uchun eng maqbul xisoblanadi, bunday maydonlarda soya o'suv davrida 2-3 marta sug'oriladi. Yer osti suvlari 2 metrdan past joylashgan bo'lsa sug'orish soni oshib boradi.

Soya namga juda talabchan o'simlik. Shuning uchun ham O'zbekistonda asosan sug'oriladigan maydonlarda ekiladi. Soya yorug'likka talabchan, qisqa kunlik o'simlik hisoblanadi. Ammo ertapishar navlari kunning uzayishidan unchalik ta'sirlanmaydi. Soya turli tuproqlarda o'sa oladi. Ammo, mexanik tarkibi yengil, unumdor, g'ovak, chirindilarga boy tuproqqa ekilsa, hosildorligi albatta, yuqori bo'ladi.

Iссиqlikka talabi. Bu o'simlik issiqlikka talabchan. Uning urug'lari una boshlashida 15-18⁰S, maysa hosil bo'lishi uchun 20-22⁰S harorat ma'qul hisoblanadi. O'zbekistonda havo harorati 38-40⁰Sgacha ko'tariladi. Soyaning eng ertapishar navlari uchun 1600 -1700⁰S, o'rtapishar navlari uchun 2000-2200⁰S, kechpishar navlari uchun esa 2800-3000⁰S harorat zarur. Kuzda past harorat – 2 – 2,5⁰S, o'simliklari uchun zararsiz, -4-5⁰S darajada o'simlik va urug'lari sovuqdan zararlanadi.

Soya urug'lari ekilgan paytda havo va tuproq harorati qancha past bo'lsa, urug'larining unib chiqishi shuncha kechikadi, yuqori bo'lsa, tezlashadi. Takroriy ekilganda urug'lari 3-4 kunda unib chiqadi. Yerlani ekishga tayyorlash- g'o'zani yerini tayyorlangandek bir xil.

Xulosa qilib aytganda global iqlim o'zgarishi sharoitida Buxoro viloyatini har xil darajada sho'rlangan tuproq sharoitida qimmatbaho soya o'simligini tuproqlarni mexanik tarkibidan kelib chiqib har gektar maydonda 450-500 ming tup parvarishlanganda belgilangan rejadagi hosilni olish va yaxshi samaradorlikka erishish mumkinligi o'rganildi.

Adabiyotlar:

- 1.Enken V.B. Soya. Moskva: Kolos,1959., 451s
- 2.Atabaeva X.N. Osobennosti vozdelivaniya soi v oroshaemoy zone Uzbekistana. // Mater.konf. «Agrarnaya nauka na rubeje veka», Akmol,1997.-15 s.
- 3.Yormatova D.Yo. Soya. Samarqand, 1991. -166 b.
- 4.Baranov V.F. Soya: biologiya i texnologiya vozdelivaniya. – Krasnodar.: Sovetskaya Kuban, 2005.- 433s.
- 5.Jumayev F.H., Safarova N.I.-Tuproq unumdorligini oshirishda soya ekinining ahamiyati. //Agroilm. jurnal. – Toshkent, 2018 yil 2-son, 93-94 b